



Scientific and theoretical analysis of the execution of the penalty for confiscation of property with the condition of payment

Shogrukh KUSHBOKOV¹

Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2024

Received in revised form

15 December 2024

Accepted 20 January 2025

Available online

15 February 2025

Keywords:

administrative penalty,
administrative legislation,
seizure with reimbursement,
supplementary punishment.

ABSTRACT

This article specifically examines the procedure and conditions for executing the penalty of confiscation with the requirement to pay for the item, and the unique characteristics of this type of punishment are interpreted separately. Additionally, the author has studied the experiences of advanced foreign countries in applying this penalty and has developed proposals and recommendations.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss1/S-pp87-90>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Narsani haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish jazosini ijro etishning ilmiy-nazariy tahlili

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

ma'muriy jazo, ma'muriy qonunchilik, haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish, qo'shimcha jazo.

Ushbu maqolada narsani haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish jazosini ijro etish tartibi va shartlari alohida o'rganilgan bo'lib, ushbu jazo turining o'ziga xosligi alohida talqin qilingan. Shuningdek, ushbu jazoni qo'llanilishi borasida ilg'or xorijiy davlatlar tajribalari o'rganilib, muallif tomonidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

¹ Senior Lecturer, Captain, Department of Administrative Law, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan.

Научно-теоретический анализ исполнения наказания в виде возмездного изъятия предмета

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

административное
взыскание,
административное
законодательство,
возмездное изъятие,
дополнительное
наказание.

В данной статье отдельно рассмотрены порядок и условия исполнения наказания в виде возмездного изъятия предмета, а также детально проанализирована специфика данного вида наказания. Кроме того, изучен опыт передовых зарубежных стран в его применении, а автором разработаны соответствующие предложения и рекомендации.

Narsani haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish jazosi ma'muriy qonunchilikda eng kam qo'llanilgan ma'muriy jazo turi hisoblanadi.

Qonunchilikda **narsani haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish jazosi** - ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish shu ashyoni majburiy tarzda tortib olib, uni keyinchalik sotib yuborish hamda sotishdan tushgan pulni ashyoning sobiq egasiga tortib olingan ashyoni sotish xarajatlarini chegirib tashlagan holda topshirishdan iboratdir [1].

Izlanishlar natijasida ushbu jazo faqat xorijiy davlatlardan Tojikiston Respublikasining Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksining 44-moddasi bilan o'z aksini topgan bo'lib, unda **narsani haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish jazosi** - ushbu jazo ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli yoki bevosita obyekt bo'lgan ashyoni haq evaziga majburiy olib qo'yish uni majburiy olib qo'yish va keyinchalik sotishdan iborat bo'lib, olingan summa olib qo'yilgan ashyoni realizatsiya qilish xarajatlari chegirib tashlangan holda sobiq mulkdorga beriladi deb tarif berilgan [2].

*Fikrimizcha, yuqoridagi tariflardan kelib chiqib **narsani haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish jazosi** - ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan o'qotar ov qurolini, pnevmatik ov qurolini hamda uning o'q-dorilarini majburiy olib auksion savdo orqali sotish va sotilgan pul miqdorini xarajatlarni chegirib qolgan xolda o'qotar ov qurolini, pnevmatik ov qurolini hamda uning o'q-dorilarini egasiga qaytarish tushunilmog'i lozim.*

Ushbu jazoni ijro etish tartibi yurtimizda quyidagicha amalga oshiriladi. Jumladan, jazoni olib qo'yish predmeti bu o'qotar ov qurolini, pnevmatik ov qurolini hamda uning o'q-dorilarini haqini hisoblanib, asosiy tirikchilik manbai ovchilik bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi.

Ashyoni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish ma'muriy jazo chorasi mazmuniga ko'ra ketma-ketlikda o'zaro bog'langan quyidagi uch harakatni amalga oshirishdan iborat:

huquqbuzar shaxsdan ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni majburiy tarzda olib qo'yish;

majburiy tarzda olib qo'yilgan ashyoni sotish;

ashyoni sotishdan tushgan pulni ashyoning sobiq egasiga ashyoni sotish xarajatlarini chegirib tashlagan holda topshirish.

Ashyoni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish ham asosiy, ham qo'shimcha ma'muriy jazo chorasi sifatida qo'llanilishi mumkin.

Asosiy jazo chorasi sifatida ashyni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish faqat O'zbekiston Respublikasi MJtKning 220-moddasi birinchi qismida o'qotar qurollar va o'q-dorilarni saqlash yoki tashish qoidalarini buzganlik uchun jarima bilan muqobil tarzda nazarda tutilgan. **Qo'shimcha jazo chorasi sifatida haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish**, xavfli moddalar va ashyolarni transportda tashish qoidalarini buzganlik uchun (**MJtKning 142-m. 2-q.**) va qurolning va uning o'q-dorilarining muomalada bo'lishi qoidalarini buzish uchun (**MJtKning 220-m.**) belgilangan.

Shu bilan birga, birinchi huquqbuzarlik uchun ashyni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yishni qo'shimcha jazo chorasi sifatida nazarda tutsa, ikkinchi huquqbuzarlik uchun mazkur jazo chorasini albatta asosiy jazo chorasi bo'lgan jarima bilan to'ldiradi.

Tojikiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra, haq evaziga olib qo'yishni qo'llash tartibi va olib qo'yilishi lozim bo'lgan narsalar ro'yxati ushbu Tojikiston Respublikasining Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari bilan belgilanadi. Haq to'lanadigan majburiy olib qo'yish faqat sudya tomonidan tayinlanadi. Haq evaziga majburiy olib qo'yish sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlik xususiyatiga muvofiq bo'lishi kerak. Uchinchi shaxsning huquqbuzarga tegishli bo'lmagan mol-mulki uni olish vaqtida uchinchi shaxs huquqbuzarning niyati to'g'risida xabardor bo'lganligi isbotlangan taqdirdagina haq evaziga majburiy olib qo'yiladi [2].

Ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli yoki bevosita obyekt bo'lgan ashyolarni haq evaziga olib qo'yish to'g'risidagi qarorni ijro etish. Tojikiston Respublikasining Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksining 846-moddasiga binoan Ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli yoki bevosita obyekt bo'lgan ashyolarni haq evaziga olib qo'yish to'g'risidagi sudyaning qarori Tojikiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda ijro etiladi. Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etish quroli yoki bevosita obyekt bo'lgan olib qo'yilgan ashyolarni sotish Tojikiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ushbu jazo turi 201 yil 28 dekabrda 398-FZ-sonli "Fuqarolik qurollari muomalasi sohasida nazoratni kuchaytirish bo'yicha Rossiya Federatsiyasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi Federal qonuni [3] bilan Rossiya Federatsiyasining ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksining chiqarib tashlangan.

Ushbu jazo turi yildan yilga qo'llanilish darajasini yurtimizda ham o'z kuchini yo'qotmoqda, jumladan, ushbu jazo shaxslarga nisbatan qo'llanilishi yillar kesimida quyidagicha o'z aksini topadi:

- 2020-yilda **15 ta** shaxsga;
- 2021-yilda **14 ta** shaxsga;
- 2022-yilda **3 ta** shaxsga;
- 2023-yilda **1 ta** shaxsga;
- 2022-yilning birinchi yarmida **2 ta** shaxsga qo'llanilgan.

Ashyni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish jazo turi viloyatlar kesimida quyidagicha qo'llanilgan:

2020-yilda:

- Andijon viloyatida **6 ta**;

- Бухоро viloyati **1 ta**;
- Qashqadaryo viloyatida **3 ta**;
- Namangan viloyatida **2 ta**;
- Farg'ona viloyatida **3 ta** shaxsga nisbatan ushbu jazo tayinlangan.

2021-yilda:

- Бухоро viloyati **1 ta**;
- Qashqadaryo viloyatida **2 ta**;
- Navoiy viloyatida **1 ta**;
- Namangan viloyatida **4 ta**;
- Surxondaryo viloyatida **4 ta**;
- Farg'ona viloyatida **2 ta** shaxsga nisbatan ushbu jazo tayinlangan.

2022-yilda:

- Sirdaryo viloyatida **1 ta**;
- Farg'ona viloyatida **1 ta**;
- Xorazm viloyatida **1 ta** shaxsga nisbatan ushbu jazo tayinlangan.
- 2023-yilda Jizzax viloyatida **1 ta** shaxsga nisbatan ushbu jazo tayinlangan [4].

2024-yilning birinchi yarmida:

- Qashqadaryo viloyatida **1 ta**;
- Jizzax viloyatida **1 ta** shaxsga nisbatan ushbu jazo tayinlangan.

Xulosa qilib aytganda, fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksidan narsani haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish jazosini ma'muriy jazolar safidan chiqarish maqsadga muvofiqdir deb hisoblaymiz va bu taklifimizni quyidagilar bilan isbotlash mumkin:

birinchidan, ushbu jazo deyarli qo'llanilmasligi bu yuqoridagi statistikadan ko'rinib turibdi;

ikkinchidan, ushbu jazo bor-yo'g'i ikkita huquqbuzarlik uchun qo'llanilishidir. Ya'ni xavfli moddalar va ashyolarni transportda tashish qoidalarini buzganlik uchun (MJtKning 142-m. 2-q.) va qurolning va uning o'q-dorilarining muomalada bo'lishi qoidalarini buzish uchun (MJtKning 220-m.)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. [Elektron manba: <https://lex.uz/docs/-97664>. Murojaat vaqti: 10.02.2024 y].

2. Кодекс Республики Таджикистан об административных правонарушениях [Elektron manba: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30414710 Murojaat vaqti: 10.02.2024 y].

3. Федеральный закон от 28.12.2010 N 398-ФЗ. [Elektron manba: https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_1_08553/30b3f8c55f65557c253227a65b908cc075ce114a/#dst100160. Murojaat vaqti: 10.02.2024 y].

4. Jinoyat ishlari bo'yicha sudlarning 2024 yil 1-yarmidagi faoliyat yakunlarining asosiy ko'rsatkichlari [Elektron manba: <https://stat.sud.uz/>. Murojaat vaqti: 10.02.2024 y].